

BIOSFERA VA NOOSFERA: O'ZARO ALOQADORLIK VA MUAMMOLAR

Panjiyev Suhrob, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

БИОСФЕРА И НООСФЕРА: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПРОБЛЕМЫ

Панжиев Сухроб, Термезский университет экономики и сервиса, Исполняющий обязанности доцента кафедры “Социальных наук” (PhD)

BIOSPHERE AND NOOSPHERE: INTERCONNECTION AND ISSUES

Panjiyev Sukhrob, Termez University of Economics and Service, Acting Associate Professor of the Department of “Social Sciences” (PhD)



E-mail:

suhrob.panjiyev@mail.ru

Tel: +998996788788

Orcid: 0009-0004-2448-9047

Annotatsiya: Maqolada biosfera va noosfera xususida, ularning o'zaro aloqadorligi, biosfera va noosferaning o'zaro aloqadorligi doirasida yuzaga kelgan muammolari borasida va bu muammolarni bartaraf etishga oid fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: noosfera, biosfera, texnosfera, etosfera, falsafa, fan, bilim, sun'iy yo'ldoshlar, jamiyat, ekologik muammo, geologik kuch.

Аннотация. В статье изложены взгляды на биосферу и ноосферу, их взаимосвязь, проблемы, возникшие в рамках взаимосвязи биосферы и ноосферы, и пути преодоления этих проблем.

Ключевые слова: ноосфера, биосфера, техносфера, этосфера, философия, наука, знание, искусственные спутники, общество, экологическая проблема, геологическая сила.

Annotation. In the article, opinions are expressed about the biosphere and noosphere, their interrelationship, the problems that have arisen within the framework of the interrelationship of the biosphere and noosphere, and how to eliminate these problems.

Key words: noosphere, biosphere, technosphere, etosphere, philosophy, science, knowledge, satellites, society, environmental problem, geological force.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda noosfera tushunchasi, uning namoyon bo'lishi va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi bahslar to'xtagani yo'q. Insoniyat olam sirlarini tobora ko'proq bilib boraverar ekan, noosferaning xilma-xil qirralarini

kashf etish davom etaveradi. Bu esa shu sohadagi bilimlar to'planishiga, turli dalillarni umumlashtirish, ular asosida falsafiy g'oyalarni o'rta tashlash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Noosferani biosferadan ajralgan, mustaqil mavjud bo'lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech

qanday aloqasi bo'lmagan sof nazariy qarash sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o'tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunmoq lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Noosfera inson faoliyati, bu faoliyatning fikr va vazifalarini maqsad va insonning fikrlarini bahamjihat harakatlar vositasida umumiy birlashishga jalb qiluvchi insoniyatning fikrlovchi kuchlar va birliklarning butun majmui sayyoramiz evolyusiyasiga ta'sir ko'rsatadi, uni ko'p jihatdan belgilaydi. V.I.Vernadskiy noosferaga biosferani va umuman tabiatni o'zgartirishga qaratilgan inson faoliyati natijasi sifatida yondoshdi. Uning fikricha, Yer atrofiga kelib chiqishi antropogen xususiyatga ega bo'lgan "parda" vujudga keladi, ammo bu ideal soha emas, balki biosferaning rivojlanishidagi muayyan bosqichdir. Bunda odamlarning ongli o'zgartiruvchi faoliyati amalda mazkur rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, shu tariqa yuzaga kelgan "aql-idrok sohasi" esa moddiy kuchga aylanadi.

Inson raketalar, sun'iy yo'ldoshlar, orbital stansiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, ayni vaqtda u (inson) shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o'zining hatti-harakati bilan biosfera chegaralarini kengaytiradi. Jamiyat tabiat bilan o'zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitadi va "ijtimoiylashtiradi". Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq "tortiladi", uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tabiatning bir qismi bo'lgan inson mazkur jarayonni to'xtata olmaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ekologik va jamiyatning axloqiy muammolar bir-biridan farqlansa-da, ular mohiyati, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari, salbiy oqibatlari jihatidan uzviy aloqadordir. Ushbu muammolarga xos umumiylik, avvalo, butun insoniyatning hayoti shart-sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir. Ikkinchi tomondan, ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. Bu muammolarni hal qilishda, eng avvalo

sayyoramizda *etosfera* - *axloqiy muhit* davrini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bunday muammolarni hal qilish uchun jamiyat hamda "jamiyat-tabiat" sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Bu o'z navbatida falsafiy bilimlarni, fan sohalaridagi yangiliklarni o'zlashtirishni, shu bilan bir qatorda hayotning qadr-qimmatini chuqur anglashni muayyan axloqiy ideaallarni egallashni talab qiladi.

Noosfera (Aql sohasi)ni anglash unga nisbatan 2 xil munosabatni to'g'ri tushunishni taqozo qiladi: uning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, jamiyat taraqqiyotida noosfera bosqichini ijobiy (progressiv) hodisa sifatida deb talqin etish mumkin. Mingyilliklar davomida bilimlar tufayli odamlar an'anaviy jamiyat batomam yangilanib, yangicha madaniy hayot vujudga keldi [1]. Insoniyat taraqqiyotida yozuv, kitob bosish dastgohining kashf qilinishi, buyuk geografik kashfiyotlar radio, televideniye, uyali aloqa vositalari, kosmik uchish apparatlari, sun'iy yo'ldoshlar xalqaro internet tarmog'ining yaratilishi inson va jamiyat hayotida mutlaq yangi davrni boshlab berdi. Noosfera qudrati Yer deb atalgan Olamning bir kichik nuqtasida yangi dunyo qiyofasini yarata oldi.

Ayni vaqtda Noosferani salbiy (regressiv) hodisa sifatida talqin etish, uning tabiat va kishilik jamiyati hayotiga keskin va xatarli ta'sir etuvchi jihatlarini ham ko'rish mumkin.

Aqlning cheksiz quvvati oqibati bo'lgan bu xavfni, insoniyat ancha kech ya'ni, XX asrning 70-yillari boshlaridagina anglay boshladi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi. Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritayotgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining "XXI asr yo'li" deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko'rsatib o'tilganidek, Yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosferaning ifloslanishi, azon qatlamining buzilishi va hokazolarni ro'y berishiga olib keldi" [2]. Ekologiya o'zgarishi oqibatida yuz berayotgan tabiiy ofatlar insoniyat hayotiga salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda odamzot global inqirozlarga ro'baro' turibdi: Yadro urushi xavfi, chuchuk suv zahiralarning tobora kamayib borishi, insoniyat hayoti uchun zaruriy xom ashyo

manbalarining tobora kamayib borishi, iqlimdagi o'zgarishlar, tabiiy ofatlar - bularning hammasi umumbashariy muammolar tobora ko'payib borayotganidan dalolat beradi. Shu o'rinda tabiiy birsavol to'g'iladi. Bu muammolarni bartaraf etish mumkinmi? Noosfera xayoliy utopiyami yoki insoniyatni asrash strategiyasimi?

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bu borada, akademik V.I. Vernadskiy noosfera davrining qaror topish mumkinligini asoslab, jahon jamoatchiligi diqqatini quyidagi masalalarga qaratdi: **Birinchidan**, mamlakatlararo tezkor aloqa vositalarini isloh qilish va dunyodagi barcha mamlakatlararo aloqalarni mustahkamlash; **Ikkinchidan**, biosferada kechayotgan boshqa geologik jarayonlar insonni geologik rolini ortib borayotganini e'tiborga olish va yangi energiya manbalarini izlab topish; **Uchinchidan**, barcha diniy va irqiy farqlardan qat'iy nazar, odamzot tengligini va axloqiy muhit barqarorligini ta'minlash; **To'rtinchidan**, ichki va tashqi muammolarni yechishga xalq ommasi kuchiga tayanish va ilmiy tafakkur erkinligi ta'minlash; **Beshinchidan**, ta'limi tizimini takomillashtirish va xalq farovonligini oshirishning real imkoniyatlarini yaratish; **Oltinchidan**, tabiatni oqilona o'zgartirish va urushlarni ijtimoiy amaliyotdan tamomila chiqarib tashlash.[3]

Noosfera davri uchun qo'yilgan yuqoridagi parametrlar ma'lum ma'noda hozirgi davrda butun dunyo xalqlari amaliyotida namoyon bo'layotgani quvonchlidir. Jahonda yadroviy urush xavfiga qarshi kurashish, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish, inson manfaatlari ustunligiga erishish, insonga eng oliy qadriyat sifatida qarash kabilar Yer, hayot, insoniyatning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

Tabiat kelgusi evolyusiyasini saqlab qolishga uchun aql bilan yondashishi, axloqiy muhit barqarorligini ta'minlashi, inson, insoniyat va tabiat oldidagi burch mas'uliyatini anglashi, noosferaning hayotiyligini ta'minlash omili ekanligini unutmasligi lozim. Darhaqiqat, "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik qo'l qovushtirib o'tirish – o'z-o'zini o'limga

mahkum etish bilan barobardir... Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'ta o'nglab bo'lmas ekologik muammolarga olib keladi" [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi.

Binobarin bugungi kunda jamiyat, ekalogiya va etikalogiya muammosi – bu eng avvalo inson muammosi, uning ma'naviy-axloqiy, aqliy-idrokiy dunyosi muammosidir. Insonning tabiatga munosabatining o'zgarishi, avvalo, insonning insonga munosabatining o'zgarishini taqozo etadi. Endi inson o'zi oldidagi va tabiat oldidagi majburiyatlarini anglay boshlashi va atrof muhitga bo'lgan munosabatini oqilona-axloqiy tartibda olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. – М., 1989. – С.136.
2. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T: "O'zbekiston" nashr, 1997. – 113 b.
3. Karimov.I. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: "O'zbekiston" nashr., 1997. – B. 112-113.
4. Panjiyev, S. (2022). The relevance of the philosophical comprehension of truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 195-197.